

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**



**IQTISODIYOT VA BIZNES
FANINIG O'QUV DASTURI**
(masofaviy ta'lim shakli)

Bilim sohasi:	400000	– Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000	– Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410200	– Buxgalteriya hisobi

Samarqand – 2026

Mazkur o'quv dasturi Iqtisodiyot fakulteti Kengashining 2026-yil 26.06
11-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

Mazkur o'quv dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasidan taqdim etilgan (kafedraning 2026-yil 24.06 11-sonli yig'ilish bayoni).

Tuzuvchilar:

B.X.Azizkulov – i.f.f.d., dotsent, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasida dotsenti.

Z.N.Ishniyozov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasida assistenti.

Taqrizchilar:

Q.J.Mirzayev – i.f.d., professor, Samarqand iqtisodiyot va servis institutining "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasida mudiri.

J.M.Qayumov - O'zbekiston "Savdo sanoat palatasi" Samarqand viloyati Boshqarmasi inson resurslari va ijro nazorati bo'yicha bosh mutaxassisi.

1. Fan ma'lumotlari						
Fan/modul kodi IB2405	O'quv yili 2026-2027	Semestr 4			ECTS – Kreditlar 5	
Fan/modul turi Tanlov	Ta'lim tili O'zbek	O'quv rejadagi tartib raqami 60410200 – 2.01			Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi Iqtisodiyot va biznes	Jami yuklama (soat) 150	Auditoriya mashg'ulotlari jami – 60 soat, shundan:			Mustaqil ta'lim (soat) 90	Kurs ishi -
		Ma'ruza	Amaliy	Lab-ya		
		30	30	-		

2. Fanning mazmuni
Fanni maqsadi – talabalarga iqtisodiy va biznes jarayonlarini tushuntirish, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdir. Quyida bu fanni o'qitishdan asosiy maqsadlar keltirilgan: iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish, bozor munosabatlarini tushunish, iqtisodiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirish, davlatning iqtisodiyotdagi rolini tushuntirish, Global iqtisodiy jarayonlarga tushunchani oshirish, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, biznes reja tuzishni o'rgatish, marketing, menejment va moliyaviy boshqaruv asoslarini tushuntirish, Innovatsion fikrlash va liderlik qobiliyatlarini shakllantirish, amaliy ko'nikmalar berishdan iborat. Fanning vazifasi – nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, talabalarga iqtisodiy qonuniyatlarni o'rganish, resurslardan samarali foydalanish yo'llarini ko'rsatish, bozor mexanizmlari va davlatning iqtisodiyotdagi roli haqida tushuncha berish, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va prognozlash ko'nikmalarini shakllantirish, mikro va makro darajadagi iqtisodiy muammolarni aniqlash va hal qilish yo'llarini ko'rsatish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish bo'yicha bilim berish, biznesni tashkil etish va boshqarish yo'llarini o'rgatish, bozor sharoitida raqobatbardosh mahsulot yoki xizmat yaratishga o'rgatish, biznes reja tuzish, risklarni baholash va investitsiyalarni jalb qilish ko'nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatli va etik biznes yuritish tamoyillari haqida nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat.
3. Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar
1. (ITT1105) Iqtisodiy ta'limotlar tarixi
2. (IQN1211210) Iqtisodiyot nazariyasi 1,2
3. IAKTT1105 Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar
4. (IQS1305) Iqtisodiy siyosat

4.	Ta'lim natijalari (TN)
	Kashiy kompetensiyalar:
TN1	Iqtisodiyot va biznesning nazariy asoslari, mazmuni, mohiyati va rivojlanish bosqichlari haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishlari kerak;
TN2	Zamonaviy iqtisodiyot va biznesni o'sishida iqtisodiy qonuniyatlarni o'rganish, resurslardan samarali foydalanish yo'llarini ko'rsatish va ularni iqtisodiyotga joriy etish usullarini bilishlari lozim;
TN3	Bozor mexanizmlari va davlatning iqtisodiyotdagi roli haqida tushuncha berish, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va prognozlash ko'nikmalarini shakllantirish va baholash bo'yicha bilimga ega bo'lishlari kerak;
TN4	Mikro va makro darajadagi iqtisodiy muammolarni aniqlash va hal qilish yo'llarini ko'rsatish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish bo'yicha bilim hamda amaliyotda ularni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish haqida tahlil qilishni bilishi kerak;
TN5	Biznesni tashkil etish va boshqarish yo'llarini o'rgatish, raqobatbardosh mahsulot yoki xizmat yaratishga o'rgatish hamda davlat tomonidan tartibga solish prinsiplari muxokama qilish darajasini aniqlay oladi;
TN6	Biznes reja tuzish, risklarni baholash va investitsiyalarni jalb qilish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyalarni o'rganish ahamiyatini farqlay oladi;
	Ko'nikmalar:
TN7	Iqtisodiy va biznes jarayonlarini tushunish, amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishni tahlil qilishni biladi.
TN8	Iqtisodiyot va biznes faoliyatlarini rivojlanishida axborot kommunikatsion texnologiyalarning o'rni va ulardan foydalanish texnologiyasini biladi.
TN9	Iqtisodiyot va biznesda innovatsion loyihalar va ularni baholash haqida tahlil qilishni biladi.
TN10	Ijtimoiy mas'uliyatli va etik biznes yuritish tamoyillari haqida nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatish mohiyati va amalga oshirish bosqichlarini biladi.

5.	Fan mazmuni va mashg'ulotlar shakli:	Soat
	Ma'ruza (M)	30
M1	Kirish. Iqtisodiyot va biznes fanining predmeti va vazifalari. <i>Iqtisodiyot va biznes fanining mazmuni va maqsadi. Iqtisodiyot va biznes fanining predmeti, vazifalari va amaliy ahamiyati. Iqtisodiyot va biznes fanining jamiyatdagi resurslardan samarali foydalanish qonuniyatlari. Bozor munosabatlari, ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol jarayonlarini tahlil qiladi. [1,2,5,9]</i>	2

Qo'shimcha adabiyotlar	
4.	Azizkulov B.X., Janzakov B.K. Iqtisodiy siyosatga kirish. O'quv qo'llanma.- Samarqand: "Bo'ston", 2022
5	A.Taniyev, S.Zenchenko, R.Kushatov, O.Xayitov. Biznes asoslari. (O'quv qo'llanma) – Samarqand.: "SamDU tahririy-nashriyot bo'limi", 2022 – 200 bet.
6	Easterly, W. (2010). The Elusive Quest for Economic Growth: Economists' Adventures and Misadventures in the Tropics. The MIT Press.184 pg
Axborot manbaalari	
7	https://www.scopus.com/authid/detail.uri?authorId=59960016100
8	https://www.scopus.com/authid/detail.uri?authorId=58989911400
9	https://www.bc.edu/content/dam/bc1/schools/mcas/economics/pdf/syllabi/ECO_N3365Laramie.pdf
10	https://economics.uwo.ca/undergraduate/undergraduate_docs/fall2017_docs/2288F001COsep17.pdf
11	https://harris.uchicago.edu/sites/default/files/2024-12/PPHA%-2037040_Economic%20Growth%20and%20Development%20Theory%20and%20Policy
12	www.economyjournal.uz

b) 4 baho olish uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: ➤ fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymasa; ➤ fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushingan bo'lsa; ➤ fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirida bajarsa; ➤ fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa; ➤ fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa; ➤ fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa; ➤ barcha amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga harakat qilgan bo'lsa.	
d) 3 baho olish uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: ➤ fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa; ➤ fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilmasa; ➤ fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa; ➤ bayon qilish ravon bo'lmasa; ➤ fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa; ➤ fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.	
e) quyidagi hollarda talabani bilim darajasi qoniqarsiz 2 baxo bilan baholanishi mumkin: ➤ fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayorgarlik ko'rilmagan bo'lsa; ➤ fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa; ➤ fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajarmagan bo'lsa; ➤ fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa; ➤ fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa; ➤ fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa; ➤ fanni bilmasa.	

10. Foydalanilgan adabiyotlar	
Asosiy adabiyotlar	
1.	Xashimov A.A., Abdiyeva D.A., Norboyeva M.A., Abdiyev M.A. Iqtisodiy siyosatga kirish. Darslik. - Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2024
2.	Rasulova N.N. Iqtisodiyot va biznes. Darslik. - Buxoro: 2025. -244 bet.
3.	A.B.Taniyev, S.A.Alikulov, I.S.Shukurov, R.X.Kushatov, O.M.Pardayeva. Biznesga kirish. (Darslik) – T.: "NIF MSH", 2024 – 336 bet.

M2	Ehtiyojlar va uning qondirilishi. Ehtiyoj tushunchasi va uning yuksalishi. Resurslarning kamyoqligi. Ehtiyojlarni qondirishning optimal darajasi. Insonning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan talablar. Oziq-ovqat, kiyim-kechak, ta'lim va madaniyatgacha bo'lgan sohalar. [1,2,5,9]	2
M3	Iqtisodiy faoliyat va ishlab chiqarish. Iqtisodiy faoliyat turlari. Ishlab chiqarish omillari va natijalari. Mehnat unumdorligi. Iqtisodiy faoliyat - insonlarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida amalga oshiradigan ishlar majmuidir. Unga ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol kiradi. Ishlab chiqarish - foydali mahsulotlar va xizmatlar yaratish jarayonidir. Bu jarayon resurslardan foydalanib, yangi qiymat hosil qilishni ta'minlaydi. [1,2,5,8]	4
M4	Iqtisodiy tizim va mexanizmlar, makroiqtisodiy muhit. Iqtisodiy tizim. Asosiy tizimlar: bozor, reja, aralash va an'anaviy iqtisodiy tizimlardir. Iqtisodiy mexanizmlar: narx, raqobat, soliq va kredit kabi elementlar. Makroiqtisodiy muhit va uning firma qarorlarini qabul qilish. Makroiqtisodiy muhit va makroiqtisodiy o'zgaruvchilardan tashkil topganligini tushunish. [1,2,5,9]	4
M5	Bozor iqtisodiyoti va unga o'tish yo'llari. Bozor iqtisodiyotining belgilari, turlari va unga o'tish yo'llari. Bozor iqtisodiyoti: erkin raqobat, xususiy mulk va talab-taklif. Bozor iqtisodiyotida bosqichma-bosqich islohotlar, xususiylashtirish va erkin bozor institutlari. Bozor sharoitidagi o'zgarishlarni izohlash uchun talab va taklif tahlilidan foydalanish. Bozor muvozanatining o'zgarishi [1,4,7,10]	2v
M6	Iqtisodiy raqobat tushunchasi. Iqtisodiy raqobat mazmuni. Raqobat va baho. Raqobat-bozorni tartibga soluvchi kuch. Xalqaro raqobat kurashi. [2,4,7,12]	2
M7	Monopoliya va bozor modellari. Monopoliya tushunchasi. Bozorning asosiy modellari. Aksmonopoliya siyosati. [1,2,4,13]	2
M8	Davlat iqtisodiyotida biznesning ahamiyati va hukumatning roli. Biznes jamiyat rivojlanishining tizimi sifatida. Bozor iqtisodiyoti sharoitida biznes. Tadbirkorlik doirasida faoliyatning ijtimoiy xarakteri. Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida biznesning o'rni. [3,4,6,11]	2
M9	Biznesning nazariy asoslari. Biznes tushunchasi va mohiyati. Biznes tushunchalari. Biznesning asosiy turlari. Tadbirkorlik funksiyalari. Biznes strategiyasi va taktikasi. Tadbirkorlikning biznesdagi roli va ahamiyati. [3,4,7,13]	2

M10	O'z biznesini yaratish. Rag'batlar va shartlar. Faoliyat sohasi va bozor tanlash. Biznesni yaratish usullari va bosqichlari. Biznesni qayta tuzish va tugatish [3,4,8,13]	2
M11	Biznesning tashkiliy asoslari. Biznes subyektlari. Tashkiliy-huquqiy shakllar. Tashkiliy-iqtisodiy shakllar. Biznesning xo'jalik birliklari. Firma tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati. Biznes infratuzilmasi. Tashqi va ichki ishbilarmonlik muhiti. [4,7,8,13]	2
M12	Biznesga kirishning asosiy tushunchasi. Biznesni boshqarish va moliyalashtirish. Biznesni rejalashtirish va madaniyati. Biznes-reja tayyorlash va moliyaviy imkoniyatlarni aniqlash. Biznesga kirish yangi imkoniyatlarni sinash va risklarni boshqarish [3,4,5,6,13]	4
	Amaliy mashg'ulot (A)	30
A1	Iqtisodiyot va biznes fanining predmeti va vazifalari.	2
A2	Ehtiyojlar va uning qondirilishi.	2
A3	Iqtisodiy faoliyat va ishlab chiqarish.	4
A4	Iqtisodiy mexanizm va tizimlar.	4
A5	Bozor iqtisodiyoti va unga o'tish yo'llari.	2
A6	Iqtisodiy raqobat tushunchasi.	2
A7	Monopoliya va bozor modellari.	2
A8	Davlat iqtisodiyotida biznesning ahamiyati.	2
A9	Biznesning nazariy asoslari.	2
A10	O'z biznesini yaratish.	2
A11	Biznesning tashkiliy asoslari.	2
A12	Biznesga kirishning asosiy tushunchasi.	4

6.	Mustaqil ta'lim topshiriqlari*	90
1	Iqtisodiyot va biznesning ahamiyati.	6
2	Ehtiyojlar va uning qondirilishi.	6
3	Iqtisodiy mexanizm va tizimlar.	6
4	Bozor iqtisodiyoti va unga o'tish yo'llari.	6
5	Iqtisodiy raqobat, monopoliya va bozor modellari.	6
6	Biznesning nazariy asoslari va o'z biznesini yaratish.	6
7	Bozor iqtisodiyoti va uning asosiy tamoyillari	6
8	Talab va taklif: nazariya va amaliyot	6
9	Ishsizlik turlari va uning iqtisodiyotga ta'siri	6
10	Pul-kredit siyosati: Markaziy bank roli	6
11	Fiskal siyosat va uning iqtisodiyotga ta'siri	6
12	Iqtisodiy o'sish: omillar va strategiyalar	6

13	Iqtisodiy tsikllar va ularning xususiyatlari	6
14	Biznes-reja tuzish: bosqichlari va tarkibi	6
15	Startaplar: muvaffaqiyatli biznes boshlash asoslari	6

**Izoh: Fan (modul) yuzasidan talabalar bajaradigan mustaqil ish topshiriqlari variativ tavsifga ega bo'lishi lozim. Mustaqil ish topshiriqlarining 1/3 qismi kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash (kooperativlik)ga mo'ljallangan.*

7.	Ta'lim texnologiyalar va metodlari
	➤ ma'ruzalar; ➤ amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; ➤ interfaol keys-stadilar; ➤ blits-so'rov; ➤ guruhlarda ishlash; ➤ taqdimotlarni qilish; ➤ jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
8.	Talabalar tomonidan kridetlarni olish uchun talablar
	Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

9.	Talabalar bilimini baholash mezonlari
	a) 5 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: ➤ fanning mohiyati va mazmunini to'liq yoritib olsa; ➤ fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymas; ➤ fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa; ➤ fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa; ➤ berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa; ➤ konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa; ➤ mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa; ➤ barcha amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan bo'lsa; ➤ nazariy bilimlarni turli vaziyatda qo'llay olish; ➤ tizimli yondashish, uzviylikka amal qilish.